



ARTICLE INFO

Received: 01st July 2021

Accepted: 05th July 2021

Online: 07th July 2021

KEY WORDS

public-private partnership, models, law, BOT, BOOT, BBO, BOO, BLOT, DBFO, DBFT, DBF, DBO, DBOOT

MODELS OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP, MECHANISMS OF IMPLEMENTATION

Aminov Mirobbos Askar ugli¹

¹ Doctoral student of Tashkent State Law University

e-mail: mr4689959@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5083313>

ABSTRACT

Existing legal regulations based on different legal traditions and cultures, different levels of economic development and market relations, partnerships between public entities and the private sector in countries with different legal systems are different. At the same time, based on the generalization of the experience of legal regulation of public-private partnership in different countries, models of public-private partnership are distinguished.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MODELLARI, ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Aminov Mirobbos Askar o'g'li¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

e-mail: mr4689959@mail.ru

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyul 2021

Ma'qullandi: 05-iyul 2021

Chop etildi: 07-iyul 2021

KALIT SO'ZLAR

davlat-xususiy sheriklik, modellar, qonun, BOT, BOOT, BBO, BOO, BLOT, DBFO, DBFT, DBF, DBO, DBOOT

ANNOTATSIYA

Turli xil huquqiy an'analar va madaniyatga, turli xil iqtisodiy rivojlanish darajalariga va bozor munosabatlariga, turli xil huquqiy tizimlarga ega bo'lgan davlatlarda davlat sub'ektlari va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlariga asoslangan mavjud huquqiy tartibga solish turlichadir. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solish tajribasini umumlashtirish asosida davlat-xususiy sheriklik modellari ajratib ko'rsatiladi.

Davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solish borasidagi xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy huquqiy tahlili davlat-xususiy sheriklik shakllari, modellari va mexanizmlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Quyida biz ushbu modellar, shakllar va mexanizmlarni alohida yo'nalishlarda tasniflab chiqamiz.

Davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartibga solish sohasida quyidagi modellar mavjud:

1) davlat-xususiy sheriklik sohasida maxsus kompleks normativ-huquqiy hujjatlarning yo'qligi bilan tavsiflangan model; ushbu sohadagi loyihalar umumiy qonun hujjatlari, shu jumladan davlat



xaridlari to'g'risidagi aktlar bilan tartibga solinadi (Avstriya, Gollandiya, Shvesariya);

2) davlat-xususiy sheriklik sohasidagi maxsus kompleks normativ-huquqiy hujjati bo'lmagan taqdirda, davlat-xususiy sherikligining ayrim jihatlari (shu jumladan, konsessiyalarni) tarmoqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami orqali minimal darajada muvozanatli huquqiy tartibga solish modeli (iqtisodiyotning ayrim sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini turlicha tartibga soluvchi maxsus qonunchilik modeli). Bunga misol qilib Chexiya Respublikasini keltirishimiz mumkin. Chexiyada "Konsessiya shartnomalari va Konsession prodseduralari to'g'risida"gi[1] hamda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi[2] qonunlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida ham 2019-yil 10-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi[3] qonun qabul qilingunicha ushbu soha maxsus qonunlar bilan tartibga solinib kelingan.

3) davlat-xususiy sheriklik sohasida maxsus kompleks normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi bilan tavsiflangan model (iqtisodiyotning barcha sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi yagona maxsus qonunchilik modeli), shu bilan birga, bunday huquqiy tartibga solishning to'liqlilik darajasi turli mamlakatlarda farq qiladi. Masalan, Qirg'izistonda 2019-yil 22-iyulda qabul qilingan "Qirg'iz Respublikasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi[4] qonuni.

Ushbu model o'z navbatida quyidagi turlarga ega:

3.1) davlat-xususiy sheriklikni huquqiy tartiba solish sohasidagi maxsus

normativ-huquqiy hujjatining faqat markaziy darajasida bo'lishini ta'minlaydigan model. (Irlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Serbiya, Sloveniya, Ukraina, Fransiya, Xorvatiya, Janubiy Koreya, Yaponiya);

3.2) markaziy (federal) va mintaqaviy darajalarda bir vaqtning o'zida davlat-xususiy sheriklik huquqiy tartibga solish sohasidagi maxsus ixtisoslashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligini ta'minlaydigan model (Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, AQSh). Masalan, "Kanadaning Strategik infratuzilma jamg'armasi to'g'risida"gi[5] qonuni markaziy, yani federal darajada tartibga solsa, "Manitoba viloyat davlat-xususiy sherikligi shaffofligi va hisobdorligi to'g'risida"gi[6] qonun mintaqaviy tartibga soladi. Xuddi shunday tartibda AQSHda "Bolalarga yordam berishda davlat-xususiy sheriklik to'g'risida Federal qonun"[7] markaziy darajada bo'lsa, "Jorjiya shtatining davlat va mahalliy hokimiyat darajalarida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi[8] qonuni mintaqaviy darajada tartibga solidi.

3.3) davlat-xususiy sheriklik sohasida faqat ixtisoslashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlarning mintaqaviy darajasida bo'lishini ta'minlaydigan model (Avstraliya, Belgiya, Rossiya);

4) davlat-xususiy sheriklik sohasidagi qonun hujjatlarining ma'lum haddan tashqari ko'plik, ortiqcha to'yinganlik bilan tavsiflangan modeli. Bunga Braziliya misol bo'la oladi, bu yerda mintaqaviy darajada davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi ko'plab hujjatlar federal qonunlarni takrorlaydi, aksariyat hollarda yangi normalarni kiritmasdan, davlat-xususiy



sheriklik to'g'risidagi qonun normalarini takror kiritadi. Bunday holda ko'zlangan maqsadga erishishda samaradorlik bo'lmaydi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik sohasida maxsus kompleks normativ-huquqiy hujjatning yo'qligi, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish va rivojlantirishga aniq va shubhasiz salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omil emas.

Davlat-xususiy sherikligini huquqiy tartibga solish tajribasi o'rganilgan davlatlarda konsessiyalarni huquqiy tartibga solish mexanizmi davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonun hujjatlari tarkibida eng rivojlangan hisoblanadi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi yagona maxsus qonunchilik modeli iqtisodiyotning ayrim sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini turlicha tartibga soluvchi qonunchilik modeli bilan taqqoslaganda afzalliklari ham, kamchiliklari ham bor. Shunday qilib, afzallik, shubhasiz, bunday qonun hujjatlari me'yorlarining universalligi (ushbu ikki modelning birinchisi uchun), chunki bunday munosabatlarning huquqiy tabiati odatda bir xil va ba'zi bir muhim masalalar, masalan, barcha sohalarga nisbatan davlat-xususiy sherikligi to'g'risida shartnomalar tuzish qoidalari o'xshashdir. Biroq, turli sohalarda davlat-xususiy sherikliklaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Masalan, universal qonunchilikni qabul qilish bilan muammoli ravishda samarali tartibga solinishi mumkin bo'lgan munosabatlar turli xil sohalarda turli xil

texnik va xavfsizlik standartlari bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yagona huquqiy tartibga solishning bunday modelining asosiy kamchiligi bu holda qonunchilikning zarur moslashuvchanligi yo'qligi muqarrar, bu, ayniqsa, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan jamoat munosabatlarining turli darajalarida va turli sohalarida davlat-xususiy sheriklik konkret loyihalarini amalga oshirish bo'yicha munosabatlarga umumiy huquqiy normalarni qo'llashda juda seziladi.

Iqtisodiyotning ayrim sohalarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini farqli ravishda (differensial) tartibga soluvchi qonunchilik modelining afzalligi uning raqobatbardosh bozorlarni yaratishga hissa qo'shadigan potensial yuqori rag'batlantiruvchi ta'siridir. Shuningdek, ushbu model jamiyat manfaatlari va loyihalarni to'g'ri bajarilishi ustidan davlat nazorati mexanizmlarini ta'minlash uchun potensial jihatdan yanada samarali kafolatlarni yaratishga imkon beradi.

Umuman davlat-xususiy sheriklik institutini amalga oshirishni tartibga soluvchi umumiy qonunchilik modelidan foydalanish tendensiyasi yaqinda davlat-xususiy sheriklik qo'llanila boshlangan va bu borada qonunlar qabul qilingan va boshlang'ich bosqichida bo'lgan davlatlarda kuzatilmoqda. Aksincha, davlat-xususiy sherikligini amalga oshirish amaliyoti allaqachon yo'lga qo'yilgan mamlakatlar (Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Afrika) davlat-xususiy sheriklik sohasida universal qonunchilikni qabul qilish ehtimoli tobora kamayib bormoqda.



Ilmiy adabiyotlarda davlat-xususiy sherikligini tizimli tashkil etish darajasiga asoslangan holda kengaytirilgan modellarning tasnifini ajratib ko'rsatish o'rinli:

- operator modeli, xususiy sherik xizmat ko'rsatish va infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash uchun qisman yoki to'liq javobgar bo'ladi, shu bilan birga xizmatlar ko'rsatish yoki infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarining kafolatlari davlat sherigi tomonidan ta'minlanadi, aksariyat xatarlar (yoki barcha xatarlar) va ular bilan bog'liq javobgarlik xususiy sherikga yuklanadi;

- konsessiya modeli, xususiy sherikning xizmat ko'rsatuvchi va infratuzilma xizmatlaridan foydalanuvchilar (iste'molchilar) bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasini, shu jumladan foydalanuvchilarning to'lovlarini mustaqil ravishda to'g'ridan-to'g'ri yig'ib olishni ta'minlaydigan model;

- hayot sikli shartnomasi modeli, xususiy sherikning ob'ektni yaratish va ekspluatatsiya qilishning barcha bosqichlari uchun mas'ul bo'lishini, shu jumladan shartnomada ko'rsatilgan ob'ektning butun faoliyati davomida ob'ekt tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati uchun javobgar bo'lishini ta'minlaydigan model;

- hamkorlik modeli, davlat va xususiy sektor manfaatdor tomonlari tomonidan qo'shma korxonalar tashkil etishni ta'minlaydigan model.

Deloitte & Touche LPP tashkilotining g'oyalariga asoslanib, davlat-xususiy sheriklik modellarning tasnifini ham alohida ajratib tahlil qilishimiz mumkin:

1) davlat-xususiy sheriklikning oddiy modeli. Ushbu model dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik modellarning (BOT, BOOT, teskari BOOT, BBO, BOO, BLOT, DBFO, DBFT, DBF, DBO, DBOOT va boshq.) aksariyat qismini o'z ichiga oladi. An'anaviy usulga muvofiq - ushbu model bilan - potensial xatarlarning aksariyati, masalan ortiqcha xarajatlar va infratuzilma ob'ekti qurilishining kechikishi bilan bog'liq xatarlar xususiy sektorga tegishli [9];

2) xavf-xatar kamaytirilgan davlat-xususiy sheriklik modeli. Belgilangan davlat-xususiy sheriklik modeliga muvofiq, tavakkalchilikni u yoki bu sherikga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish asosan qaysi sherikning bunday xatarlarni yanada samarali boshqarish hamda moliyaviy oqibatlarini yengish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Natijada, ayrim hollarda, sifat va xarajatlarning nisbati oddiy modelga nisbatan xususiy sherikga berilgan umumiy xavfni kamaytirish orqali yaxshilanishi mumkin. Ushbu model Buyuk Britaniyada amalga oshirish misollariga ega [10];

3) raqobatdosh sheriklik modeli. Raqobatdosh sheriklik modeliga muvofiq, loyihalarni amalga oshirish uchun bir nechta qo'shma korxonalar tashkil etiladi, shu bilan birga ular bir-biriga nisbatan raqobatbardosh asosda ishlaydi va ba'zi bir ishlarning kutilayotgan mahsuldorligi va sifatiga aniqlik kiritilgandan so'ng ular o'rtasida majburiyatlarni qayta taqsimlash imkoniyati mavjud. Ta'riflangan model, xususan, Buyuk Britaniyada va AQShda amalga oshirilmoqda (ushbu model, masalan, Bank of America xususiy sektorida mahalliy filiallarni saqlash



bo'yicha aurosing shartnomalarini joylashtirishda muvaffaqiyatli ishlatilgan)[11];

4) alyans modeli. Ushbu modelning asosiy g'oyasi munosabatlardagi har qanday raqobat va nomuvofiqlikni bartaraf etish va loyihani amalga oshirish uchun tomonlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlashdan iborat. Bu holda asosiy e'tibor loyihaning yakuniy natijalari belgilangan kerakli parametrlarga (loyihalash bosqichida ko'rsatilgan) mos kelishini ta'minlashga, shuningdek xatarlarni boshqarish tartiblarini soddalashtirishga qaratilgan. Ushbu model Buyuk Britaniyada amalga oshirish misollariga ega[12];

5) bosqichma-bosqich sheriklik modeli (ketma-ket bir-birini to'ldiruvchi sheriklik modeli). Ushbu model alyans modeliga o'xshashdir, ammo loyihalar bir necha bosqichlarda, ketma-ket amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Ushbu model davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida davlat sektori nomidan zarur infratuzilma va xizmatlarni taqdim etuvchi cheklangan shartnoma (framework agreement) tuzishni o'z ichiga oladi. Avvalgi bosqichlarda aniqlanmagan shartlar aniqlangan holatlarda yoki loyiha bosqichining natijalari shartnoma talablariga jiddiy javob bermasa, davlat sherigi aniq loyihalarni amalga oshirishni to'xtatish yoki amalga oshirish usullarini o'zgartirish va boshqa xususiy sheriklarni jalb qilish huquqiga ega. Ushbu modeldan foydalanish kelajakda shartnomalarda ko'rsatilgan loyihalarning ko'lami va muddati haddan tashqari ko'p bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda davlat-xususiy sheriklik to'g'risida uzoq muddatli shartnomalar tuzmaslik imkonini beradi.

Ushbu model Buyuk Britaniyada amalga oshirish misollariga ega[13];

6) integrator modeli. Ushbu model loyihaning butun muddati davomida chindan ham maqbul raqobat rag'batlantirilishini ta'minlaydi va xususiy sheriklardan biri strategik sherik, "integrator" rolini o'ynaydi, ya'ni, qisqacha aytganda, "integrator" asosan loyihaning amalga oshirilishini boshqaradi va barcha to'g'ridan-to'g'ri ijrochilarning faoliyatini muvofiqlashtiradi, ba'zi hollarda loyihaning faqat birinchi bosqichlarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Ushbu model Buyuk Britaniyada amalga oshirish misollariga ega[14].

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan 3-sonli tasnifga ko'ra, ikkinchisidan oltinchigacha bo'lgan modellar "moslashuvchan" bo'lib, birinchi modelga qaraganda davlat-xususiy sheriklik institutining rivojlangan shakllarini ifodalaydi.

U yoki bu modelning tarqalishi - yuqoridagi uchta tasnifga ko'ra - turli mamlakatlarda ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, zamonaviy siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga, xususiy sektorni o'ziga xos ijtimoiy funktsiyalarga ega bo'lgan davlat funktsiyalarini bajarishga jalb qilish tarixiga bog'liq (masalan, Yaponiya, Braziliya, Fransiya, Meksika yoki Ispaniyada bu tarix bir necha asrlarga borib taqaladi).

Ole Xelbi Petersen Daniya va Irlandiya kabi davlatlarning ushbu sohadagi tajribasini qiyosiy tahlil qilib, ushbu mamlakatlarda dastlabki bosqichlarda amalga oshirilgan davlat siyosatining o'xshashligi va davlat boshqaruvining huquqiy tartibga solinishi



va davlat boshqaruvidagi ulkan farqlar mavjud ekanligini yoritib bergan. Daniyada davlat va xususiy sektor o'rtasidagi bunday hamkorlik umuman Irlandiyada bo'lgani kabi kuchli emas, chunki hozirgi paytda bu sohada Daniyaga qaraganda ancha puxta ishlab chiqilgan qonunchilik va davlat siyosati mavjud. Buning sababi shundaki, Daniyada rivojlangan davlat infratuzilmasi va yetarli miqdordagi davlat resurslari bilan infratuzilma va xizmatlarni taqdim etishda ishtirok etish uchun xususiy moliyalashni jalb qilish o'sha paytda davlat-xususiy sherikligi bo'lgan Irlandiyadan farqli o'laroq, ortiqcha, keraksiz bo'lgan[15].

M.A. Deryabina quyidagi shakllarni ajratib ko'rsatadi:

1) shartnomalar davlat (mahalliy hokimiyat) va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida muayyan ijtimoiy zarur va foydali faoliyatni amalga oshirish uchun tuzilgan ma'muriy shartnoma sifatida. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida eng keng tarqalgan ishlarni bajarish, davlat xizmatlari ko'rsatish, menejment, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etkazib berish, texnik yordam ko'rsatish uchun shartnomalar mavjud. Ma'muriy shartnomaviy munosabatlarda mulk huquqi xususiy sherikga o'tmaydi, xarajatlar va xatarlar to'liq davlat tomonidan qoplanadi. Xususiy sherikning qiziqishi shundaki, shartnoma bo'yicha u daromad, foyda yoki yig'ilgan to'lovlarning kelishilgan ulushiga ega. Qoida tariqasida, davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati bilan tuzilgan shartnomalar xususiy tadbirkor uchun juda jozibali biznes hisoblanadi, chunki ular obro'-e'tiboridan tashqari, unga barqaror bozor va

daromadni, shuningdek mumkin bo'lgan imtiyozlar va afzalliklarni kafolatlaydi;

2) ijara shartnomasi va lizing shartnomasi. Hokimiyat organlari va xususiy biznes o'rtasidagi ijara munosabatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, davlat yoki kommunal mulkni xususiy sherikga vaqtincha foydalanish uchun berish shartnomada belgilangan shartlarda va ma'lum bir haq evaziga amalga oshiriladi. An'anaviy ijara shartnomalari ijara predmetini qaytarishni nazarda tutadi va mol-mulkni tasarruf etish vakolati egasida qoladi va xususiy sherikga o'tkazilmaydi. Maxsus kelishilgan hollarda, ijara munosabatlari ijaraga olingan mulkni sotib olish bilan tugashi mumkin. Ijara shartnomasi tuzilgan taqdirda, ijarachi har doim davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati mulkini sotib olish huquqiga ega; An'anaviy ijara shartnomalari ijara munosabatlari predmetini qaytarishni nazarda tutadi va mulkni tasarruf etish huquqi mulkdorda qoladi va xususiy sherikga o'tmaydi. Maxsus kelishilgan hollarda, ijara munosabatlari ijaraga olingan mulkni sotib olish bilan tugashi mumkin. Lizing shartnomasi tuzilgan taqdirda, lizing oluvchi har doim davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati mulkini sotib olishga haqli;

3) konsessiya shartnomasi - bu davlat va xususiy sherik o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, davlat sheriklik munosabatlari doirasida konsessiya shartnomasining predmeti bo'lgan mulkning to'liq egasi bo'lib qoladi, xususiy sherikga ma'lum muddat davomida shartnomada ko'zda tutilgan funksiyalarni bajarishga vakolat beradi va shu maqsadda uni konsessiya ob'ektining normal



ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan vakolatlar bilan ta'minlaydi. Davlat mulkidan foydalanlik uchun konsessiyachi konsessiya shartnomasida belgilangan shartlarda badal to'laydi[16].

Xalqaro tasniflash mezonlari[17] ga ko'ra, ya'ni xususiy sherikga berilgan mulk huquqining mazmuni va hajmiga, tomonlarning investitsiya majburiyatlariga, sheriklar o'rtasida xavfni taqsimlash prinsiplariga, turli xil ishlarni bajarish uchun javobgarlikka qarab quyidagi davlat-xususiy sheriklik modellari ajratiladi:

- "Build - Operate - Transfer" — "Qurish-Boshqarish-O'tkazish" (BOT) modeli asosan konsessiyalarda qo'llaniladi va xususiy sherikni o'z mablag'lari hisobidan loyihalashtirish, moliyalashtirish va qurishni ta'minlaydi. Uzoq muddatli konsessiya shartnomasi asosida yangi infratuzilma ob'ekti va ushbu ob'ektning ma'lum bir muddat foydaladi (sarmoyani qaytarish uchun yetarli muddatda), shundan so'ng ko'rsatilgan ob'ekt davlat sherigiga qaytariladi. Konsessiyachi davlatga tegishli ob'ektni boshqarish huquqini oladi, lekin egalik qilish huquqiga ega emas;

- "Build-Operate-Own-Transfer"— "Qurish-egalik qilish-boshqarish- o'tkazish" (BOOT) modeli, bunda xususiy sherik ob'ektni moliyalashtirish, loyihalash, qurish va ishlatish huquqlarini oladi, shu jumladan foydalanish uchun ma'lum bir muddat davomida to'lovlarni oladi. Keyinchalik mulk huquqi davlatga qaytariladi, bu holda xususiy sherik belgilangan muddat davomida nafaqat foydalanish huquqini, balki infratuzilma ob'ektiga egalik huquqini ham oladi;

- "Build- Transfer-Operate" — "Qurish - o'tkazish - boshqarish" (BTO) modeli davlat sherigi bilan kelishilgan reja asosida xususiy sherik tomonidan infratuzilma ob'ektini qurishni (qisman yoki to'liq) amalga oshirishni nazarda tutadi; qurilish tugagandan so'ng infratuzilma ob'ekti hukumat sherigiga o'tkaziladi; ob'ekt davlat tomonidan qabul qilingandan so'ng, u xususiy sherikning boshqaruviga o'tadi, lekin unga egalik huquqini o'tkazmasdan (shartnoma muddati xususiy sherik o'z sarmoyasini qoplashi uchun yetarli bo'lishi kerak) shartnomada belgilangan muddat tugagandan so'ng, davlat sherigi ob'ektni boshqarishni o'z zimmasiga oladi yoki ko'rsatilgan xususiy sherik (yoki boshqaruv tashkiloti) bilan shartnomani uzaytiradi yoki sherikni almashtirish huquqiga ega;

- "Buy-Build-Operate"— "Xarid qilish - qurish - ishlash" (BBO) modeli mulkni modernizatsiya qilish va uning ma'lum muddat davomida ishlashi sharti bilan davlat mulkini xususiy sherikga berishni nazarda tutadi;

- tuzilgan infratuzilma ob'ekti shartnoma muddati tugagandan so'ng davlat sherigiga o'tkazilmaydi, lekin xususiy sherikning ixtiyorida qolishini ta'minlaydigan "Build - Own - Operate" (BOO)—"Qurish-Egalik qilish-Boshqarish" modeli. Ya'ni, xususiy sherik infratuzilma ob'ekti qurilganidan keyin uning egasiga aylanadi; xususiy sherik infratuzilma ob'ektini moliyalashtiradi, quradi, egalik qiladi va foydalanadi yoki umrbod egalik qilish yoki ijaraga berish asosida infratuzilma yoki boshqa davlat xizmatlarini taqdim etadi, o'z navbatida davlatga tartibga solish vakolatlari beriladi;



- Xususiy sherikga ijaraga olingan infratuzilma ob'ektini moliyalashtirish, loyihalashtirish, qurish va ishlatish uchun franchayzing olish, shu jumladan iste'molchidan haq to'lashni nazarda tutuvchi "Build - Leasing - Operate - Transfer"—"Qurish - Ijara - Foydalanish - O'tkazish" (BLOT) modeli - ijara haqini to'lash orqali ma'lum bir ijara muddati davomida xizmatlar ko'rsatuvchi modeldir;

- "Design - Build - Finance - Operate"—"Loyihalash - qurish - moliyalashtirish - ishlash" (DBFO) modeli, bu xususiy infratuzilma ob'ektini loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va foydalanishni belgilangan muddat asosida va xususiy sherik tomonidan amalga oshirilishini ta'minlaydigan uzoq muddatli ijara bo'lib (bu holda davlat egasi bo'lib qoladi), undan keyin xususiy sherik ko'rsatilgan ob'ektni davlat sherigiga o'tkazadi. Xususiy sherik uchun daromad manbai infratuzilma ob'ektidan foydalanuvchilarning to'lovlaridir. Ba'zida ijara haqi davlatdan undiriladi ("yashirin to'lov"), qachonki haqiqiy iste'molchilar emas, balki davlat ob'ektdan foydalanganligi uchun haq to'laydi (masalan, pullik avtomagistralda sayohat qilish uchun), chet elda u ko'pincha pullik yo'llarni qurish uchun ishlatiladi;

- "Design - Build - Finance - Maintain"—"Loyihalash - qurilish - moliyalashtirish - qo'llab-quvvatlash" modeli (DBFM) - avvalgi modelga nisbatan bir muncha kengroq, ob'ektni ishlatishda xususiy sherikning ishtirokini nazarda tutadigan model (bundan tashqari, kengroq "qo'llab-quvvatlash");

- moliyalashtiriladigan infratuzilma ob'ektini loyihalashtirish, qurish va

foydalanish uchun xususiy sherikning javobgarligini nazarda tutadigan "Design - Build - Operate"—"Loyihalash - qurish - boshqarish" (DBO) modeli, bunda ob'ekt davlat sherigining mulki bo'lib qoladi

- xususiy sherik tomonidan qurilgan infratuzilma ob'ektlarini saqlash va joriy ta'mirlash uchun javobgarligiga alohida e'tibor beradigan "Build - Operate - Maintain - Transfer" — "qurish - foydalanish - saqlash - o'tkazish" (BOMT) modeli;

- "Loyihalash - qurish - egalik qilish - boshqarish - o'tkazish" (DBOOT) modeli, bu xususiy sherikning nafaqat infratuzilma ob'ekti qurilishi uchun javobgarligini, balki uning loyihalashi uchun belgilaydi;

- xususiy sherik (moliyaviy xizmatlar kompaniyasi) loyihani to'g'ridan-to'g'ri yoki uzoq muddatli ijaraga berish yoki qimmatli qog'ozlarni (obligatsiyalar) chiqarish kabi turli xil mexanizmlar orqali moliyalashtiradigan "Finance Only" — "Faqatgina moliyalashtirish" modeli;

- xususiy sherikga ma'lum muddat davomida davlat xizmatini ishlab chiqarish va taqdim etish huquqini (litsenziyasini) olishini ta'minlaydigan "Operation License" — "Faoliyat yuritish huquqi" modeli (ko'pincha axborot texnologiyalari (IT) loyihalarida qo'llaniladi);

- "Long Term Lease" — "Uzoq muddatli ijaraga berish" (LTL) modeli, odatda mavjud infratuzilma ob'ektlarini foydalanishini tashkil qilish uchun ishlatiladi va xususiy sherik (konsessioner) bilan davlat mablag'lari hisobiga qurilgan mavjud pullik ob'ektlar uchun ijara shartnomasini tuzishni nazarda tutadi. Shartnomada nazarda tutilgan muddat



davomida xususiy sherikga uchinchi shaxslar tomonidan infratuzilma ob'ektdan foydalanilganlik uchun to'lovlarni undirish huquqi beriladi, biroq shu bilan birga xususiy sherik ob'ektni boshqarish va undan foydalanishga, ayrim hollarda ob'ektni ta'mirlash (obodonlashtirish) va shuningdek, davlatga avans konsessiya badali to'lash;

- mavjud infratuzilma ob'ektlarining ishlashini tashkil qilish uchun ham, yangi infratuzilma ob'ektlarini yaratish va modernizatsiya qilish uchun ham foydalaniladigan "Lease – Develop – Operate" — "ijaraga berish - rivojlantirish - ishlatish" (LDO) modeli. Davlat sherigi xususiy sherikka (konsessiyachiga) mavjud infratuzilma ob'ektini boshqarish va yanada rivojlantirish (kengaytirish,

takomillashtirish) uchun ijaraga berish huquqini beradi; xususiy sherik kelajakda ushbu investisiyalar hajmi rentabellikning ijobiy darajasi bilan to'lanishini kutib, mavjud ob'ektni yaxshilash uchun sarmoyalar kiritadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'plab mamlakatlar DXSHni amalga oshirishni rag'batlantirish uchun maxsus qonunchilik va ko'rsatmalarni joriy etishgan. DXSH modellarini qonunchilikda mustahkamlab qo'yishning asosiy g'oyasi loyihani amalga oshirishda qonuniy to'siqlarni bartaraf etish hamda turli xil nizolarni oldini olishdir. Bundan tashqari, DXSH modeli mahalliy yoki xalqaro investorlarning tavakkalchiligini o'lchash hamda izchillikni ta'minlash uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Act № 139 of 14 March 2006 on Concession Contracts and Concession Procedure (the Concession Act) // <<http://www.pppcentrum.cz/res/data/004/000533.pdf>>
2. Chexiya Respublikasining 14.03.2006 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonuni <http://www.pppcentrum.cz/res/data/006/000770.pdf>
3. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi qonun <http://lex.uz/ru/pdfs/4329272>
4. "Qirg'iziston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"
5. <http://minjust.gov.kg/?p=7616>;
http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=50238.
6. Canada Strategic Infrastructure Fund Act // Statutes of Canada. – 03.27.2002.
7. <http://lois-laws.justice.gc.ca/eng/acts/C-10.3/page-1.html#docCont>.
8. Public-Private Partnerships Transparency and Accountability Act, <http://web2.gov.mb.ca/laws/statutes/2012/c03612ei.php>;
<http://web2.gov.mb.ca/laws/statutes/2012/pdf/c03612.pdf>;
9. Child Care Public-Private Partnership Act of 2012 <http://www.gpo.gov/fdsys/pkg/BILLS-112hr5877ih/pdf/BILLS-112hr5877ih.pdf>
10. State and Local Public-Private Partnership Act of 2010 http://www1.legis.ga.gov/legis/2009_10/fulltext/hb1134.htm
11. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. – London, 2008. – 24 p. – P. 7. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>
12. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. – London, 2008. – 24 p. – P. 10 <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>



13. 11. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. - London, 2008. - 24 p. - P. 11. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>
14. 12. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. - London, 2008. - 24 p. - P. 12-13. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>
15. 13. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. - London, 2008. - 24 p. - P. 9. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>
16. 14. Building flexibility. New delivery models for public infrastructure projects / Deloitte & Touche LPP. - London, 2008. - 24 p. - P. 9. <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/uk/Documents/infrastructure-and-capital-projects/deloitte-uk-building-flexibility-report.pdf>
17. 15. Petersen O.H. Public-Private Partnerships as converging or diverging trends in public management?
18. A comparative analysis of PPP policy and regulation in Denmark and Ireland // <https://journals.sfu.ca/ipmr/index.php/ipmr/article/viewFile/100/100>
19. 16. Дерябина М.А. Теоретические и практические проблемы государственно-частного партнерства <http://www.gosbook.ru/node/27464>.
20. 17. P3 Defined // <http://www.fhwa.dot.gov/ipd/p3/defined/>;
21. 3.A Practical Guide to Good Governance in Public-Private Partnerships / Economic Commission for Europe; United Nations. - New York - Geneva: UN, 2008 https://www.unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ppp_r.pdf
22. 4. Models of Public-Private Partnerships // <http://www.pppcouncil.ca/resources/about-ppp/models.html>;
23. 5. Centre for Civic Governance of the Columbia Institute, 2009. - 119 p. http://www.civicgovernance.ca/files/uploads/columbiap3_eng_v8-webpdf.pdf
24. Fayzieva G.U. psychological-component-of-remote-learning <https://www.neliti.com/publications/336561/>